

Abdulaziz AKKULOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil izlanuvchisi

JAHON VA MILLIY TURIZM RIVOJLANISHINING DOLZARB MASALALARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon iqtisodiyotida turizm sohasining ahamiyati, uning iqtisodiy o‘rni va bandlikdagi o‘rni ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda O‘zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari misolida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, raqamlashtirish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda turizm sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati tahlil etilgan hamda xalqaro tajribani milliy turizm tizimiga moslashtirish orqali turizmning raqobatbardoshligini oshirish istiqbollari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: global iqtisodiyot, turizm infratuzilmasi, xalqaro turizm, investitsiyalar, raqamlashtirish, barqaror turizm, innovatsion texnologiyalar, davlat-xususiy sheriklik, turizm marketingi, smart tourism, turizm raqobatbardoshligi.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ значения туристической отрасли в мировой экономике, а также её роли в обеспечении экономического роста и занятости населения. В исследовании на примере Узбекистана и Объединённых Арабских Эмиратов рассмотрены вопросы развития туристической инфраструктуры, привлечения инвестиций, цифровизации и внедрения современных механизмов управления. Кроме того, проанализированы государственная политика Республики Узбекистан в сфере развития туризма, содержание и сущность Стратегии «Узбекистан – 2030», а также нормативно-правовые документы, регулирующие туристическую отрасль. В статье также обоснованы перспективы повышения конкурентоспособности туризма посредством адаптации международного опыта к национальной туристической системе.

Ключевые слова: глобальная экономика, туристическая инфраструктура, международный туризм, инвестиции, цифровизация, устойчивый туризм, инновационные технологии, государственно-частное партнёрство, туристический маркетинг, «умный туризм», конкурентоспособность туризма.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the significance of the tourism sector in the global economy, particularly its role in economic growth and employment. The study examines the development of tourism infrastructure, attraction of investments, digitalization, and the implementation of modern management mechanisms through the examples of Uzbekistan and the United Arab Emirates. Furthermore, it analyzes the state policy aimed at tourism development in the Republic of Uzbekistan, including the content and essence of the “Uzbekistan–2030” Strategy and regulatory legal documents related to the tourism sector. The article also substantiates the prospects for enhancing the competitiveness of tourism by adapting international experience to the national tourism system.

Keywords: global economy, tourism infrastructure, international tourism, investments, digitalization, sustainable tourism, innovative technologies, public-private partnership, tourism marketing, smart tourism, tourism competitiveness.

So‘nggi yillarda global iqtisodiy ko‘rsatkichlar turizm sohasining jahon iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini yanada oshib borayotganini ko‘rsatmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda jahon yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi taxminan 105 trillion AQSH dollariga yetgan bo‘lib, global

iqtisodiyotning o'sish sur'ati o'rtacha 3,2 foizni tashkil etdi⁷. Shu bilan birga, turizm sohasi jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egallab, uning umumiy hissasi YaIMning qariyb 9-10 foizini, bandlikning esa har o'ninchi ish o'rnini tashkil etgani qayd etilmoqda. Xalqaro turizm oqimi ham izchil o'sib bormoqda. Jumladan, 2024-yilda xalqaro sayyohlar soni 1,4 milliarddan ortiqni tashkil etib, turizm daromadlari hajmi 1,6 trillion AQSH dollaridan oshgan. Prognozlarga ko'ra, 2030-yilga borib jahon turizm bozori hajmi sezilarli darajada kengayib, xalqaro sayyohlar soni 1,8 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Ushbu ko'rsatkichlar turizm sohasining global iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish va hududiy rivojlanishni ta'minlashdagi muhim rolini yana-da kuchaytiradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi turizm sohasini iqtisodiyotning muhim drayver tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishni nazarda tutadi⁸. Mazkur strategiyada turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, turizm xizmatlari sifatini oshirish, hududiy turizmni rivojlantirish va xalqaro turizm bozoriga integratsiyani kuchaytirish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son Farmoni turizm sohasida xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish va ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, turizm xizmatlari sifatini oshirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, turizmni rivojlantirish jarayonida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish va xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashgan Arab Amirliklari turizmni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakat qisqa vaqt ichida turizmni iqtisodiyotning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirib, jahon turizm markazlaridan biriga aylandi. BAA turizmni rivojlantirishda zamonaviy infratuzilma yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali yuqori natijalarga erishgan.

BAA tajribasi shuni ko'rsatadiki, turizm infratuzilmasini rivojlantirish turizm sohasining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu mamlakatda zamonaviy aeroportlar, transport tizimi, mehmonxonalar va turizm xizmatlari infratuzilmasi xalqaro standartlar asosida rivojlantirilgan. Bundan tashqari, turizm sohasida qulay investitsiya muhiti yaratilgan bo'lib, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, BAA turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, smart tourism tizimlari, onlayn bronlash platformalari va sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar turizm xizmatlari samaradorligini

⁷ <https://www.untourism.int/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>

⁸ www.lex.uz

oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa turistlar uchun qulay sharoit yaratish va turizm xizmatlari sifatini oshirishda muhim rol o‘ynamoqda.

1-jadval

Global iqtisodiy va turizm ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslama jadval (Jahon, BAA va O‘zbekiston misolida)⁹

Ko‘rsatkichlar	Jahon	BAA (Birlashgan Arab Amirliklari)	O‘zbekiston
YaIM hajmi (2024)	105 trln AQSH dollari	545 mlrd. AQSH dollari	101 mlrd. AQSH dollari
YaIM o‘shish sur‘ati	3,2%	3,8%	6,0%
Turizmning YaIMdagi ulushi	9-10%	11-12%	2,5-3%
Xalqaro turistlar soni	1,4 mlrd. kishi	29 mln. kishi	11,7 mln. kishi
Turizm daromadlari	1,6 trln AQSH dollari	45 mlrd. AQSH dollari	3,5 mlrd. AQSH dollari
Turizmda bandlik ulushi	10%	12%	3-4%
Asosiy turizm yo‘nalishlari	Global turizm	MICE, lux, shopping, medical	Ziyorat, madaniy, ekologik
Raqamlashtirish darajasi	Yuqori	Juda yuqori	O‘rta
Investitsiya muhiti	Barqaror	Juda qulay	Rivojlanayotgan

O‘zbekiston sharoitida BAA tajribasini o‘rganish va amaliyotga joriy etish milliy turizm tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish, turizm xizmatlari sifatini oshirish, marketing va brending tizimini rivojlantirish hamda turizmni raqamlashtirish milliy turizm siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda jahon turizmi rivojlanishining asosiy tendensiyalari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: turizmni raqamlashtirish, barqaror turizmni rivojlantirish, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ekologik va madaniy turizmni rivojlantirish hamda turizmda innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Ushbu tendensiyalar turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiy samaradorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, shuningdek turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan Prezident farmonlari va qarorlari milliy turizm tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, xizmatlar sifatini oshirish va turizmni raqamlashtirish masalalari dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, turizmni kompleks rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish, innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash va samarali marketing siyosatini shakllantirish orqali ushbu sohani iqtisodiyotning asosiy drayver tarmog‘iga aylantirish mumkin. Ayniqsa,

⁹ Muallif ishlanmasi.

BAAda zamonaviy infratuzilma, investitsion muhit, raqamli xizmatlar va xalqaro brendingning uyg'un rivojlantirilgani turizmning yuqori raqobatbardoshligini ta'minlagan. Ushbu tajriba O'zbekiston sharoitida turizm salohiyatidan samarali foydalanish, xizmatlar sifatini oshirish, hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish va xalqaro turizm bozorida mamlakat pozitsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, milliy turizmni rivojlantirish jarayonida BAA modelining samarali jihatlarini moslashtirish, zamonaviy boshqaruv mexanizmlari, raqamlashtirish va investitsion yondashuvlarni joriy etish turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi hamda O'zbekistonning global turizm tizimidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Turizm sohasida xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish va ichki turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-16-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Turizm sohasini rivojlantirish va turizm xizmatlari sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. – Toshkent, 2024.
5. А. Эштаев, Нурфайзиёва М.З. Туризм сиёсати ва режалаштириш. дарслик– Тошкент: ТДИУ нашриёти, 2025.
6. Sustainable Tourism Management in Uzbekistan Through Digital and Environmental Development of Transport and Logistics Infrastructure. SR Safaeva, MT Alieva, MZ Nurfayzieva. Smart Transport Systems and the Digital Economy Infrastructure, 163-171
7. Eshtayev A. A. O'zbekistonda Turizm Sohasini Rivojlanishiga GLOBAL Trendlarning ta'siri //Green Economy and Development. – T. 1. – №. 10. – С. 72-78.
8. Eshtayev A. Tourism Potential of the Republic of Uzbekistan and Prospects for its Development //Samarkand: Silk Road Int. Univ. of Tourism and Cultural Heritage Publishing House. – 2023.
9. World Travel and Tourism Council (WTTC). Travel & Tourism Economic Impact Report. – London, 2024.
10. World Bank. International Tourism and Economic Development Report. – Washington, 2023.